

ISSN:2181-0427

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2020 йил 8 сон

26	Туркистонда жадидчилик ҳаракатининг шаклланиши ва ривожланишида маҳмудхўжа бехбудийнинг ўрни Мустафаев Ж. Ш	159
27	Экологик тарбия - соғлом авлод келажакнинг муҳим омили сифатида Қиличев Ф.	165
28	Миллий-маънавий хавфсизлик тушунчаларининг ижтимоий-фалсафий талқини Мирахмедов Ж.М.	171
29	Бузғунчи ғоя ва мафкураларнинг тарихий кўриниши Юлдашева М.М.	174
30	Абу Наср Форобий асарларида динга муносабат ва унинг фалсафий моҳияти Юсубов Ж. К.	179
31	Глобаллашув шароитида шахс инновацион типининг ўзига хос хусусиятлари. Суннатов Н.Б.	182
32	Тасаввуф тариқатларида халқ билан мулоқот қилиш муаммолари Саматов Х.У.	186

10.00.00

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES**

33	Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг илмий ва адабий меросини ўрганиш Арипова А.Х.	195
34	Нофилологик отмада инглиз тили ўқитиш жараёнида талабалар мотивациясини ривожлантириш масаласининг тутган ўрни: жорий амалиёт таҳлили Саматова Б.Р.	202
35	Ўзбек тилидаги “илм-маърифат” семемали лексемаларнинг валентлиги Рахматуллаева Д.Ш.	210
36	Америка реалистик адабиётида инсон ва жамият муносабатлари тасвири Ғаниева О. Ҳ, Садуллаев Ф.Б.	215
37	O'zbek hikoyalarining ingliz tili tarjimasida grammatik transformatsiyalar Kasimova R.R, Ziyadullayeva A.A.,	220
38	Баҳолаш категориясининг умумий белгилари. Мансурова Г.М.Файzieva К.А.	227
39	Инглиз тилидаги ўзлаштирилган ҳарбий лексика диахроник аспектда Курганов А.М.	230
40	Интегратив машқлар фанлараро алоқадорликни таъминлашнинг самарали воситаси сифатида Мухитдинова Х.С.	235
41	Викториан инглиз адабиётида ижтимоий роман жанри тадрижи Муҳаммедова Х. Э.	240
42	Ўзбек адабиётида тарихий асар илдизи Икромхонова Ф.И.	245
43	Композита ясовчи бирликларнинг луғат леммалари сифатида берилиши (Немисча-Ўзбекча луғатлар мисолида) Санакулов З.И.	251

этади. Инсон ва дунё, инсон ва эътиқод, инсон ва кураш мавзулари қисса моҳиятига сингдириб юборилади. “Инсонни парчалаб ташлаш мумкин, лекин енгиб бўлмайди” - деган бош сўз атрафида барча ҳаракатлар, тасвирлар, манзаралар, қиёфалар, характерлар, сўзлар бирлашади ва санъат асарининг мукамал кўриниши кўз олдимизда гавдаланади.

Хулоса қилиб айтганда, Америка реалистик адабиёти узоқ тарихий йўлни босиб ўтди. XIX аср сўнгидан бошланган ҳаракатлар реалистик адабиёт сари етаклади. Ўзининг асарлари билан Уильям Дин Хоуэллс реалистик адабиёт ривожини учун тамал тошини қўйди. Шунингдек, Вилла Кейтер, Шервуд Андерсон, Кэтрин Анна Портер, Жеймс Тёрбер, Ф.Скот Фицджералд, Уильям Фолкнер, Эрнест Хемингуэй, Томас Вульф, Жон Стейнбек, Жесси Стюарт сингари ёзувчилар асарларида ижтимоий тенгсизлик, зулм ва ҳақсизлик, инсон ва дунё, инсон ва эътиқод, инсон ва кураш, Америка ҳаёти, реалликларини, танг вазиятларни ҳаққоний, қизиқарли тасвирлашди. Бу билан АҚШ реалистик адабиётини жаҳон адабиётидаги энг сермахсул миллий адабиётлардан бирига айлантиришди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Андреев Л.Г. и др. Зарубежная литература XX века. - М.:Высшая школа, 2004. - С.559.
2. Батулин С. С. “Джон Стейнбек и традиции американской литературы” М.: Художественная литература, 1984. - С.354
3. Богословский В., Гражданская З. Зарубежная литература XX века. I (1871 – 1917). - М.: Просвещение, 1979. - С. 351.
4. Гиленсон Б. История литературы США. – М.: Academia, 2003. – С. 704.
5. Засурский Я.Н. Американская литература XX века.-М.: МГУ, 1984. - С.504.
6. Carlsen, G. Robert. American literature, a chronological approach. – USA.: Treasury, 1985. -P. 878.
7. Храповицкая Г., Ладыгин М., Луков В. Зарубежная литература XX века. Хрестоматия т. I (1871 – 1917).- М.: Просвещение, 1981. -С. 638.
8. XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Профессор Н.Ф.Каримов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. - Т: Фан, 2012. - Б.248.
9. High, Peter B. An Outline of American literature. – USA.: Pearson Education, 2000. - P. 256.

O'ZBEK HIKOYALARINING INGLIZ TILI TARJIMASIDA GRAMMATIK TRANSFORMATSIYALAR

Rano Kasimova Rakhmatulloevna,
Buxoro davlat universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti
(ranokasimova77@mail.ru)
Aziza Ziyadullayeva Akmalovna,
Buxoro davlat universiteti,
Xorijiy tillar fakulteti bitiruvchisi

Annotatsiya: Maqola Gʻafur Gʻulom hikoyalarining ingliz tili oʻgirmasida qoʻllanilgan grammatik transformatsiyalarni ochib berish va tahlil qilishga bagʻishlangan. Tarjimon mahorati, tarjima asarning asliyat mazmuni bilan muvofiqligi chogʻishtirma aspektida oʻrganilib, fikr mulohaza bildirilgan, misollar yordamida dalillangan.

Kalit soʻzlar: mutanosiblik, grammatik transformatsiya, grammatik almashtiruv, milliy oʻziga xoslik, frazeologik birlik.

ГРАММАТИЧЕСКИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ УЗБЕКСКИХ РАССКАЗОВ

Раъно Касимова Рахматуллоевна,
Бухарский государственный университет,
доктор философии по филологическим наукам (PhD),
доцент кафедры Английской литературы
(ranokasimova77@mail.ru)
Азиза Зиядуллаева Акмаловна,
Бухарский государственный университет,
Выпускница IV курса факультета
Иностранных языков

Аннотация: Статья посвящена анализу грамматических трансформации, использованных в английском переводе рассказов Гафура Гуляма. Мастерство переводчика, соответствие переведенной работы оригинальному содержанию изучается в сравнительном аспекте, а также мнения авторов подтверждаются примерами.

Ключевые слова: соответствие, грамматическая трансформация, грамматическая замена, национальная идентичность, фразеологическая единица.

GRAMMATICAL TRANSFORMATIONS IN ENGLISH TRANSLATION OF UZBEK STORIES

Rano Kasimova Rakhmatulloevna,
Bukhara State University,
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD),
Senior lecturer of English Literature Department
(ranokasimova77@mail.ru)
Aziza Ziyadullayeva Akmalovna,
Bukhara State University,
Graduate Student of Foreign Languages Faculty

Annotation: The article is devoted to the discussion of grammatical transformations used in English translation of Uzbek stories. Translator's skill and correspondence of the target text with the source text are analyzed in comparative method, the ideas of the authors are proved with extracts taken from ST and TT.

Keywords: correspondence, grammatical transformation, grammatical transposition, national peculiarity, frazeologic unit.

KIRISH

Ingliz, o'zbek va rus tillari tipologik va genetik jihatdan turli xil tillardir. Ingliz va rus tillari Hind-Yevropa tillari oilasining German va Slavyan guruhlariga, o'zbek tili Oltoy tillar oilasining Turkiy tillar guruhiga mansubdir. Morfologik kategoriyaga ko'ra ingliz tili analitik tillar, rus tili sintetik tillarga tegishli. O'zbek tili agglyutativ (grammatik shakl va yasama so'zlarning so'z o'zagi va negiziga affikslar qo'shilishi natijasida yasaladigan) til hisoblanadi. Aynan, shu jihatdan olib qaralganda, bir tildagi asarni boshqa bir tilga tarjima qilish jarayonida turli nomutanosibliklar namoyon bo'ladi. Grammatik muvofiqlikning 3 turi mavjud bo'lib, to'liq muvofiqlik, qisman muvofiqlik va nomuvofiqliklarni o'z ichiga oladi[1;16].

ASOSIY QISM

Asliyat tilidagi mazmunga putur yetkazmay tarjima tili kitobxoniga yoritib berish maqsadida tarjimon turli leksik va grammatik transformatsiyalardan unumli foydalanishi kerak bo'ladi.

Tillararo mutanosibliklarni barataraf etish uchun qo'llanilgan turli transformatsiyalarni G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi inglizcha tarjimasi orqali yoritib berishga urinib ko'ramiz.

Tarjima matnida bir qator so'z shakllari, turkumlari, gap bo'laklarining almashtiruv singari grammatik almashtiruvlarning ishlatilganligi grammatik kategoriyalarning ikki tilda turlicha ekanligidan, bir-biriga mos kelmasligidan dalolat beradi.

Asliyatda: Kunduz kunlar garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o'tib, mizg'iganday qush uyquasi qilaman [8].

Tarjimada: During the day, I walk around and I feel as if my head is like a spinning top, so I sit down somewhere and drowse off just like birds do[3;20].

Asliyatda keltirilgan *kunduz kunlar* ingliz tiliga *during the day*, deb o'girilgan. Misollarni o'zaro chog'ishtiradigan bol'sak ingliz va o'zbek tillarida ko'plik shaklining tuzilishidagi farq ko'rinib turadi. Ingliz tilida ko'plik shakli ko'p hollarda ot so'z turkumiga -s suffiksi qo'shish orqali yasaladi. O'zbek tilida esa ko'plik shakli -lar qo'shimchasi hamda son va miqdor so'zlari bilan ifodalanadi. O'zbek tilida ot oldidan son kelsa, -lar ko'plik qo'shimchasi tushirib qoldiriladi, ingliz tilida aksincha, tushirib qoldirilmaydi. Noaniq artiklning ot so'z turkumidan oldin ishlatilishi, miqdor ma'nosini beradi. Ko'rinib turibdiki, mazkur holatda aniq artikl qollanilib, aynan o'sha kun ma'nosini anglatgan. *All days long* yoki *during the day times* deb berish asliyat matni mazmunni yanada to'liqroq ochib bergan bo'lardi.

Asliyatda: Tunov kuni Orif sassiqning otxonasidan *to'rtta tovuq, bitta xo'roz* o'margan edim [8].

Tarjimada: The other day, I stole *four hens and a rooster* from Orif's barn [3;22].

Tarjima tilida ko'p hollarda olmosh o'rnida ot so'z turkumi qo'llanilgani yoki, aksincha, ot o'rnida olmosh ishlatilgani, ya'ni grammatik sustitutsiya (tarjima muallifniki) kuzatiladi.

Asliyatda: Eh-ha, *bu bolalar* qachon ulg'ayadi-yu, qachon o'zining nonini topib yeydigan bo'ladi! [8]

Tarjimada: When will these *little ones* grow up and eat from their own earning?[3;20]

Misolda ko'plik shaklidagi "bolalar" oti ingliz tiliga "little" ones olmoshi orqali tarjima qilingan. O'zbek xalqi bolalarni ko'z qorachig'idek asrab-avaylaydi, ulg'ayib ishlab pul topganda ham farzandlarini tashlab qo'ymaydi. O'zbek xalqigagina xos bunday madaniy xislatni ingliz tiliga o'girish, albatta, tarjima jarayonini murakkabliklaridan biri hisoblanadi. Asliyat matnida o'z *nonini topib yeyish* iborasi qo'llanilganki, bu ham o'z navbatida matnning expressive bo'yoqdorligini kuchaytirgan. Mutarjimlar bunday vaziyatlarda xalq milliy xususiyatlarini aks ettirgan iboralarni uch yo'l bilan tarjima qilishadi: metaforizatsiya, demetaforizatsiya va remetaforizatsiya [4;137]. Mazkur misolda tarjimon o'z *nonini topib yeyish* iborasini frazeologik birligini demetaforizatsiya qilgan, chunki ingliz tilida iboraning aynan analogi mavjud emas.

"Bir oyda "mister" bo'lganim" hikoyasida ham grammatik almashtirish hodisasining bir nechta turlarini ko'rishimiz mumkin:

Aliyatda: Xullas, Nasriddin Afandi o'zbekning timsoli. Nasriddinga boq – o'zbekka boq![5]

Tarjimada: In brief, Nasriddin Afandi is the symbol of Uzbeks. If you look at Nasriddin Afandi, then you're looking at Uzbeks [3;72].

O'zbek tili matnida o'zbekning *timsoli* birlik shaklda qo'llanilgan bo'lsa-da, mazmunan ko'plik shaklni ifoda etadi. Bir kishi timsolida butun xalq umumlashtirilmogda, ya'ni tarjimada transformatsiyaning generalizatsiya[1;9] usuli qo'llanilgan. Asliyat matni mazmun-mohiyatini to'g'ri anglagan mutarjim *the symbol of Uzbeks* deb ko'plik shaklini qo'llagan.

Asliyat va tarjima matnlari o'zaro solishtirilganda ko'p hollarda ot so'z turkumining olmoshlar bilan almashtirilgani kuzatiladi. Masalan:

Asliyatda: O'zbeklarning kimligini, baribir to'la-to'kis tushunolmadim. Qanaqa xalq u, o'zbeklar?[5]

Tarjimada: I haven't understood the Uzbeks completely. So what kind of people are they?[3;71]

Ba'zi hollarda bir so'z turkumidagi so'zlarning xuddi shu so'z turkumining boshqa bir turi bilan almashtirilgani ham uchraydi, masalan, o'zbekcha matndagi "o'zi" - o'zlik olmoshi tarjima matnida kishilik – "he" olmoshi bilan almashtirilgan.

Asliyatda: Bultur Charli Stefford degan chet ellik yigit bilan tanishdim. O'zi Amerikaning Illinoys degan shtatidan ekan [5].

Tarjimada: Last year, I became acquainted with a foreign young man called Charley Stefford. He is from Illinois of the United States [3;68].

"Shaharlik kelinchak" hikoyasidan olingan misollarda ham bir so'z turkumining ikkinchi bir so'z turkumi orqali o'girilganining guvohi bo'lamiz.

Asliyatda: Siz ham uyqungizning eng shirin damlaridan kechib tashqariga chiqsangiz, ajoyib manzaraning guvohi bo'lasiz [7].

Tarjimada: If one were to sacrifice his/her sleep and go outside, he/she would witness a most wonderful scene [3;38].

O'zbekcha matndagi kishilik olmoshining o'rnida tarjima matnida one gumon olmoshi qo'llanilgan. Asliyatdagi nutq ikkinchi shaxs ko'plikka qaratilgan bo'lsa-da, tarjimada uchunchi shaxs birlik orqali ifodalangan.

Asliyatda: Kelinimiz shunday odobli, bosiq. Ikki yil ichida "san-man"ga bormagan bo'lsang [7].

Tarjimada: Our daughter-in-law is very polite and well-behaved. In the past two years, she never misbehaved [3;39].

Ushbu gapda ham kishilik olmoshlarining o'zni o'zgargan. O'zbekcha matn ("san-man"ga bormagan bo'lsang) ikkinchi son birlikka qaratilgan bo'lib, tarjima matnida "she never misbehaved" uchunchi shaxs birlik bilan almashtirilgan.

Asliyatda: Ular ko'cha supurishga emas, milliy liboslar ko'rigiga otlanishganday [7].

Tarjimada: It is as if they have come out for a dress exhibition, and not to sweep their front yards [3;38].

O'zbekcha matndagi "ko'cha" so'zi tarjima matnida ko'plikda qo'llanilgan bo'lib, asliyatdagi "liboslar" so'zi aksincha, tarjimada birlik bilan ifodalangan.

Asliyatda: Ilgari meni ko'rsa, assalom, akajon, derdi, endi "hm, og'ayni, ozib-to'zib yuribsizmi?" deb kibrlanadi [5].

Tarjimada: In the past, if he saw me, he used to say, "Good morning, fellow neighbor", but now, he says "how are you, my friend? I see you've lost weight, feeling proud of himself [3;73].

O'zbekcha matndagi "endi "hm, og'ayni, ozib-to'zib yuribsizmi?" deb kibrlanadi" gapi uchunchi shaxsga qaratilgan. Tarjimada esa bevosita shaxsning o'ziga, ya'ni unga (II) qaratilgan va "I see you've lost weight, feeling proud of himself" deya tarjima qilingan.

"Mening o'g'rigina bolam" hikoyasining inglizcha tarjimasida aniq nisbat o'rnida majhul nisbatning qo'llanilishi ham kuzatiladi.

Asliyatda: Tovuq, xo'roz dedingmi? Ha, bu maxluqlari qurg'ur qaqaqlab seni sharmanda qilmadimi? [8]

Tarjimada: Do you say that you stole a hen and a rooster? These creatures might crow, you know. Didn't you get caught?[3;22]

Yana:

Asliyatda: Shunday qilib desangiz, buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi [8].

Tarjimada: But you know, grandma, I was about to get exposed [3;22].

"Shaharlik kelinchak" hikoyasining ingliz tili tarjimasida ham aniq va majhul nisbat almashinuvi uchraydi.

Asliyatda: Atlasning ming xil turi bor deysiz [7].

Tarjimada: Thousands of kinds of atlas can be seen [3;38].

Yoki:

Asliyatda: Lekin shunga qaramay u nihoyatda chayir, qishloq bolalari ichida eng "obro'lisi" edi [7].

Tarjimada: Despite this, he was respected by all the other village boys [3;41].

O'zbekcha matndagi gaplar tarjima matnida majhul nisbatda berilgan. Bunda gapdagi so'z tartibi, gap bo'laklarining o'zni o'zgargan. Ingliz tilida so'z tartibi qat'iy

hisoblanib, gap bo'laklari o'z o'rnida qo'llanilmasa mazmun o'zgarib ketadi. O'zbek tilida esa so'z tartibining o'zgarishi ma'noga ta'sir qilmaydi. O'zbek tilidan ingliz tiliga o'girilganda asliyat matnidagi tartib tarjima matnida o'zgaradi hamda grammatik transpozitsiya [1;22] hodisasi ro'y beradi.

Asliyatda: Bu ko'ngilchan yigitning mehribonchiligi Ra'noga xush yoqardi [7].

Tarjimada: Ra'no liked this sweet boy's kindness [3;41].

O'zbek tilidagi gap to'ldiruvchisi (mehribonchiligi) ingliz tilida ham to'ldiruvchi orqali ifodalangan, biroq *Ra'noga* to'ldiruvchisi tarjima matnida egaga aylantirilgan, ya'ni *Ra'no* deb berilgan. Ra'no antroponimi tarjimaning transliteratsiya [2; 125] usulida ifodalangan.

Asliyatda: Bunga qiyin. Birga o'ynaydigan bolalar yo'q [8].

Tarjimada: It's hard for him, for there are no children to play with [3;51].

O'zbekcha matndagi ega va kesim tarjima matnida o'rnini almashtirgan. Bunga sabab "there are" birikmasidir. Ma'lumki, ingliz tilida bu birikma doim gap boshida keladi va gapning egasi undan keyin qo'yiladi.

Asliyatda: Nevarasining ko'ngli nimanidir istaydi [8].

Tarjimada: The grandson wants something [3;49].

O'zbek tilidagi nevarasining aniqlovchisi tarjima matnida egaga "the grandson" so'ziga almashtirilgan.

Grammatik almashtiruv hodisasiga so'z turkumlarini, gap bo'laklarini almashtirishdan tashqari, sintaktik almashtiruv [1;22] ham kiradi, ya'ni bunda sodda gapning qo'shma gapga, yoki, aksincha, qo'shma gapning sodda gapga almashishi, shuningdek, qo'shma gapda bog'lanish va ergashish hodisalarining o'rin almashtirishlari kuzatiladi.

Asliyatda: Otasi parvo qilmay ketadi [8]

Tarjimada: His father does not pay attention to him and leaves [3;49]

O'zbekcha matndagi sodda gap tarjima matnida teng bog'lanish orqali berilgan yoki o'zbekcha matndagi ergashgan qo'shma gap tarjima tilida bog'langan qo'shma gapga aylangan.

Asliyatda: Nevarasini qo'lidan yetaklab, ichkari olib kirib ketadi [8].

Tarjimada: He takes his grandson's hand and leads him inside [3;19].

O'zbek tilidagi egalik qo'shimchalari ingliz tilida olmoshlar yordamida ifodalanadi.

Asliyatda: o'g'rigina bolam[8]

Tarjimada: my thief boy [3;19]

"O'g'rigina" va "thief" so'zlari o'rtasidagi farq asliyatdagi -gina qo'shimchasi grammatik ma'no emas, aksincha, leksik ma'no yasashida va u kichraytirish, erkalatish kabi ma'nolarni bildirib kelishidadir. Ingliz tilida esa bunaqa qo'shimcha yo'q. Uning o'rniga ingliz tilida dear, nice, lovely kabi so'zlarni ishlatish mumkin. Buning uchun, eng avvalo, har bir so'zning qo'llanilish doirasini bilish talab etiladi. Yuqorida ta'kidlanganimizdek, egalik shakli ingliz tilida egalik olmoshlari orqali yasaladi va ularsiz gapning kimga qaratilganligini bilish qiyin. O'zbek tilida bitta gapda bir necha o'rinda egalik shakli ishlatiladi, ingliz tiliga tarjima qilinganda takror qo'llanilgan bunday egalik olmoshlari tarjimaning sifatiga putur yetkazmasligi uchun tarjimon ayrim hollarda egalik shaklini tushirib qoldirishiga to'g'ri kelgan:

Asliyatda: - To'g'ri aytasiz, buvijon, - dedi o'g'ri, - mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, shularni boqishim kerak [8].

Tarjimada: "You speak the truth, grandmother," the thief said. "I also have a wife, two children, and my old mother to take care of [3;21].

Ushbu gapda tarjimon birinchi egalik olmoshini tarjimada kishilik olmoshi bilan almashtirgan va bu keyingi so'zlarga ham tegishli bo'lib, egalik shaklini ko'rsatish shart bo'lmagan va aksincha, ba'zn tarjima matnida kishilik hamda egalik olmoshlarining qo'shilganiga guvoh bo'lamiz. Tog'ay Murodning "Bobo bilan nevarasi" hikoyasidagi misollarni ko'ramiz:

Asliyatda: Bobosi ko'z ostidan nevarasiga qarab qo'yadi. Yana ishini davom ettiradi [8].

Tarjimada: His grandfather keeps an eye on his grandson as he goes on with work [3;50].

Asliyatda: Tuxumi issiq ekan [8].

Tarjimada: It's egg is so warm [3;51].

Keltirilgan misollarda ingliz tilida egalik shaklini hosil qilishning boshqa yo'li mavjud emasligi sabab tarjima matnida egalik olmoshlari qo'shilgan:

Asliyatda: Shartim shuki, ko'p ichmasin [8].

Tarjimada: My condition is that he shouldn't drink too much [3;68].

XULOSA

Umuman olganda, o'zbek tilidagi ko'plik qo'shimchalari ingliz tilida son va miqdor so'zlari, egalik qo'shimchalari olmoshlar orqali ifodalangan, miqdor ma'nosini ifodalashda artikllar qo'llanilgan, ot so'z turkumidagi so'zlar olmoshlar bilan, kishilik olmoshlari son so'z turkumi bilan, o'zlik olmoshlari kishilik olmoshlari bilan almashtirilgan. Aniq nisbat o'rnida majhul nisbat va aksincha, majhul nisbat o'rnida aniq nisbat qo'llanilgan. Shuningdek, sodda gapning qo'shma gapga, yoki, aksincha, qo'shma gapning sodda gapga almashishi, qo'shma gapda bog'lanish va ergashish hodisalarining o'rin almashtirishlari singari sintaktik almashtiruvlardan unumli foydalanilgan hamda tarjima matning yengil tushunilishi, ya'ni o'qimishli bo'lishini ta'minlagan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek mutarjimlarining bevosita tarjimalari va sa'y-harakatlari tufayli jahon ahli o'zbek yozuvchilarining yetuk asarlari bilan tanishtiriladi hamda kitobxonlar o'zbek asarlarini nafaqat o'zbek tilida balki, ingliz tilida ham mutolaa qilishga muvaffaq bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aznaurova E.S., Abdurakhmanova Kh.I. Translation: Theory and Practice. – Tashkent:Ukituvchi,1989. – 175 p.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 b.
3. Saydumarova M. A Collection of Uzbek Short Stories. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2013. – 72 b.
4. Zoya Proshina. Theory of Translation. -Vladivostok: Far Eastern University Press, 2008. – 276 p.

5. www.forum.ziyouz.com
6. www.translations.com
7. www.Uzgen.org/wiki
8. www.Ziyouz.com

БАҲОЛАШ КАТЕГОРИЯСИНИНГ УМУМИЙ БЕЛГИЛАРИ.

Мансурова Гулбахор Махдиевна.

Файзиева Комила Ахроровна.

ҚарМИИ «Хорижий тиллар» кафедраси

Чет тили фани ўқитувчилари.

Аннотация: Баҳолаш бирликлари тилда кенг диапозонини ўз ичига олиб, мулоқот жараёнида муҳим аҳамиятга эгадир. Тил реал олам ва инсон ўртасидаги ўзаро муносабатларни турли аспектларда акс эттиради, улардан бири баҳолаш муносабатидир: реал олам гапрувчи томонидан унинг яхши ёки ёмон, фойдали ёки фойдасиз нуқтаи назардан характерланади.

Калит сўзлар: модаль рамка, компонентлар, структура, семантика, субъектив-объектив.

ОБЩИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ КАТЕГОРИИ.

Мансурова Гулбахор Махдиевна.

Файзиева Камила Ахроровна.

Каршинский Инженерно-экономический

институт, учителя иностранных языков.

Аннотация: Единицы оценки включают в себя широкий спектр языков и играют важную роль в процессе общения. Язык отражает отношения между реальным миром и человеком в различных аспектах, одним из которых является отношение к оценке: реальный мир характеризуется говорящим как хороший или плохой, полезный или бесполезный.

Ключевые слова: модальные рамки, компоненты, структура, семантика, субъективно-объективные.

GENERAL CRITERIA FOR THE EVALUATION CATEGORY.

Mansurova Gulbahor Makhdievna.

Fayzieva Kamila Akhrorovna.

Karshi Engineering and Economics

Institute, teachers of foreign languages.

Abstract: Assessment units include a wide range of languages and are important in the communication process. Language reflects the relationship between the real world and the human being in various aspects, one of which is the evaluation attitude: the real world is characterized by the speaker as good or bad, useful or useless.

Keywords: modal framework, components, structure, semantics, subjective-objective.